

O‘ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARINING ZAMONAVIY QUROLLANISH SIYOSATI VA RIVOJLANISH STRATEGIYASI

Qo‘chqorov Sobirjon Ahadjonovich

FarDU Harbiy ta’lim fakulteti Uslubiy tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi

Qo‘chqoraliyev Arabboy Rahimjon o‘g‘li

A‘zamjonov Nurmuhammad Murodjon o‘g‘li

FarDU Harbiy ta’lim fakulteti talabalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining qurollanish siyosati, mudofaa sohasidagi islohotlar, milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan rivojlanish strategiyalari hamda harbiy sohada qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar tahlil qilinadi. Maqolada qurolli kuchlarni modernizatsiya qilish, harbiy texnika va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, professional armiyani shakllantirish hamda xalqaro hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning harbiy siyosati xalqaro xavfsizlik tizimidagi o‘rni va istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qurollanish siyosati, milliy xavfsizlik, qurolli kuchlar, mudofaa strategiyasi, harbiy islohotlar, modernizatsiya, xalqaro hamkorlik.

Аннотация: В данной статье анализируется политика вооруженных сил Узбекистана, реформы в оборонном секторе, стратегии развития, направленные на обеспечение национальной безопасности, и передовой опыт, применяемый в военной сфере. Особое внимание уделяется модернизации вооруженных сил, внедрению военной техники и инновационных технологий, формированию профессиональной армии и международному сотрудничеству. Также рассматривается роль и перспективы военной политики Узбекистана в международной системе безопасности.

Ключевые слова: политика вооруженных сил, национальная безопасность, вооруженные силы, оборонная стратегия, военные реформы, модернизация, международное сотрудничество.

Abstract: This article analyzes the armament policy of the Armed Forces of Uzbekistan, defense reforms, national security strategies, and advanced practices in the military sector. It highlights the modernization of the armed forces, introduction of military technologies, formation of a professional army, and aspects of international cooperation. The article also discusses Uzbekistan’s role in the international security system and future prospects of its military policy.

Keywords: armament policy, national security, armed forces, defense strategy, modernization, military reforms, international cooperation.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida geosiyosiy keskinlikning ortishi, harbiy texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va yangi xavf-xatarlarning shakllanishi milliy xavfsizlik masalasini har bir davlat uchun eng muhim strategik ustuvorliklardan biriga aylantirdi. Xalqaro maydonda yuz berayotgan harbiy-siyosiy jarayonlar shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy armiya

nafaqat qurolli kuchlarning soniga, balki ularning texnik jihatdan jihozlanganligi, boshqaruv tizimining avtomatlashtirilganligi va dushmanni oldindan aniqlash salohiyatiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, milliy xavfsizlikni ta‘minlashning fundamental omili sifatida Qurolli Kuchlarni shakllantirish, yangilash va strategik rivojlantirish jarayonini boshlab berdi. Davlat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan harbiy islohotlar milliy armiya faqat mudofaa kuchi emas, balki mintaqaviy barqarorlikni saqlashda faol sub‘ekt sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning qurollanish siyosati nafaqat harbiy texnikani modernizatsiya qilish, balki professional armiya faqat mudofaa kuchi emas, balki mintaqaviy barqarorlikni saqlashda faol sub‘ekt sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning qurollanish siyosati nafaqat harbiy texnikani modernizatsiya qilish, balki professional armiya faqat mudofaa kuchi emas, balki mintaqaviy barqarorlikni saqlashda faol sub‘ekt sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning qurollanish siyosati nafaqat harbiy texnikani modernizatsiya qilish, balki professional armiya faqat mudofaa kuchi emas, balki mintaqaviy barqarorlikni saqlashda faol sub‘ekt sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining harbiy resurslari soniga keladigon bo‘lsak 2022-yil holatiga ko‘ra 420 ta tank, 1215 ta zirhli transport vositasi, 98 ta raketa tizimlari, 70 ta qiruvchi samaliyot, 65 ta vertaliyot, xususan 35 ta xujumkor vertalyot va boshqa ko‘plab qurollarga ega. Qurol ko‘tarib, armiyada xizmat qilishi mumkin bo‘lgan aholi soni esa 15.7 milliondan oshadi. Armiyamiz jismoniy tayyorgarlik holatiga ko‘ra esa Markaziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlari orasida beshinchi va dunyoning 145 mamlakati orasida 62-o‘rinni egallagani bunga misol bo‘la oladi

Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan armiyamiz salohiyatini rivojlantirish uchun bir qancha amaliy choralar ko‘rilayotkani e‘tiborga sazovor. Misol uchun kuni kecha Shavkat Mirziyoyev raisligida mudofaa qurilishi va O‘zbekiston Qurolli Kuchlarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan xizmat yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda qo‘shinlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini yanada oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta‘minlash, mavjud qurol-yarog‘ namunalari modernizatsiya qilish, shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a‘zolari va Qurolli Kuchlar faxriylarini ijtimoiy himoya qilish masalalari muhokama qilindi. Qayd etilishicha, o‘tgan davrda bo‘linmalarining texnik va zaxira ta‘minoti tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqildi, autorsing xizmatlari va harbiy klasterlar tizimi joriy qilindi.

O‘zbekistonda Qurolli kuchlarni zamonaviy qurol yaroq bilan ta‘minlash uchun qanday amaliy choralar ko‘rilmoqda?

Yuqoridagi savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Qurolli Kuchlarini modernizatsiya qilish, mudofaa sanoatini rivojlantirish va qurol-texnika ta‘minotini oshirish uchun tizimli choralar ko‘rilmoqda. Xususan 2024-yil Mudofa Sanoati agentligi quyi tizimlari „cluster“ shaklida qayta tashkil etildi. Bu orqali mahalliy qurol-yaroq va texnikani ichki ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari uchun maxsus modellar “Arslon” zirhli transportlari, “Tarlon-M” va “Qalqon” yengil zirhli avtomobillari shular jumlasidan.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning qurollanish siyosati bugungi kunda faqat mudofaaga qaratilgani emas, balki milliy manfaatlar, hududiy barqarorlik va zamonaviy xavfsizlik mezonlariga mos holda strategik rivojlanish tamoyillariga tayanmoqda. So‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar — harbiy texnika va qurol-yaroqni modernizatsiya qilish, mahalliy mudofaa sanoatini shakllantirish, harbiy xizmatchilarni

ijtimoiy himoya qilish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali qurolli kuchlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bu esa O‘zbekiston armiyasining jangovar tayyorgarligi oshib borayotganini, harbiy siyosat endilikda ilmiy asoslangan, kompleks va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini anglatadi. Xususan, 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasi doirasida armiyani eng zamonaviy texnika bilan ta’minlash, harbiy klasterlar tizimini joriy etish, tajribali mutaxassislarni tayyorlash va qurol-yaroq turlarini diversifikatsiya qilish belgilangan.

Shu bilan birga, jahon andozalariga to‘liq mos qurollanish darajasiga yetish uchun hali ma’lum bosqichlarni bosib o‘tish zarur. Zamonaviy razvedka, dron texnologiyalari, havo mudofaa tizimlari, raqamli boshqaruv modellarining keng joriy qilinishi va harbiy-sanoat kompleksining mustaqil ishlab chiqarish salohiyati – kelgusi yillarning asosiy vazifalari sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning qurollanish siyosati bugungi kunda reaktiv emas, balki strategik xarakter kasb etmoqda. Bu esa milliy xavfsizlikni ta’minlash barobarida, mamlakatni mintaqada harbiy-siyosiy jihatdan barqaror va mustaqil subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni.

ELEKTRON ADABIYOTLAR:

1. www.mudofaa.uz
2. www.norma.uz
3. BMT nizomi/ <https://gk-usbekistan.de>
4. <https://www.gazeta.uz>
5. <https://uz.wikipedia.org>